

O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHDA HAMKORLIKNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

*QASHQADARYO VILOYATI SHAHRISABZ TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA
QARASHLI 85-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB PSIXOLOGI
TO'RAYEVA ADIBA AKTAM QIZI
SHAHRISABZ TUMANI 6- UMUMIY O'RTA TA'LIM
MAKTAB PSIXOLOGI QURBONOVA ZULFIYA
SHAHRISABZ TUMANI 12- UMUMIY O'RTA TA'LIM
MAKTAB PSIXOLOGI
DONIYOROVA GAVHAR*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarni kasbga yo'naltirish jarayonida oila, maktab, psixolog va jamiyat hamkorligining psixologik jihatlari yoritiladi. Shuningdek, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlashda hamkorlikning ahamiyati hamda kasbiy shakllanishga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kasbga yo'naltirish, hamkorlik, psixologik jihatlar.

Kirish

Bugungi kunda o'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Kasb tanlash insonning kelajak hayoti va jamiyatdagi o'rnini belgilab beruvchi muhim jarayon bo'lgani sababli bu borada hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchini kasbga yo'naltirishda avvalo maktab, oila va psixologning hamkorligi zarur. Chunki o'quvchining qiziqishi, qobiliyati va ichki imkoniyatlarini aniqlash birgalikdagi faoliyat orqali samarali amalga oshiriladi. Psixologik jihatdan o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchi kasb tanlashda muhim rol o'ynaydi. Qo'llab-quvvatlovchi muhit mavjud bo'lsa, o'quvchi o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qila oladi. Ota-onaning farzand bilan ochiq muloqot qilishi va uning qiziqishlarini inobatga olishi kasbiy shakllanishda muhim omildir. Ayrim hollarda otaonaning bosimi noto'g'ri kasb tanlashga olib kelishi mumkin.

Asosiy Qism

Maktab psixologi o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini psixologik metodlar orqali o'rganadi. Test, suhbat va kuzatishlar orqali kasbiy moyillik aniqlanadi. O'qituvchilar ham kasbga yo'naltirish jarayonida faol ishtirok etishi kerak. Chunki ular o'quvchining fanlarga bo'lgan qiziqishi va o'qishdagi faolligini yaxshi biladi. Hamkorlikning muhim jihatlaridan biri — o'quvchini ruhiy qo'llabquvvatlashdir. O'quvchi o'z kelajagi haqida xavotirga tushganida

unga psixologik yordam zarur bo'ladi. Kasblar haqida to'liq ma'lumot berish ham muhimdir. Zamonaviy kasblar, mehnat bozori talablari va kasbiy imkoniyatlar haqida tushuntirish o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi. Turli uchrashuvlar, seminar va treninglar o'quvchilarda kasbiy motivatsiyani oshiradi.

Amaliy mashg'ulotlar esa kasblar haqida aniq tasavvur hosil qilishga yordam beradi. O'quvchini majburlash emas, balki yo'naltirish tamoyili asosida ishlash samaraliroq hisoblanadi. Erkin tanlov imkoniyati o'quvchining ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Bola shaxsining shakllanishida butun ijtimoiy voqealik hususan uning o'zi tug'ilib o'sgan oila muhiti hal qiluvchi vazifani bajaradi. Oiladagi turmush madaniyati, mehnat характери ota-onaning ahloqiy saviyasi, ijtimoiy masalaga, bolaning komil inson bo'lib yetishishiga ta'sir ko'rsatadi. Mehnat tarbiyasi – hozirgi kun tarbiyasining zarur sharti, shaxsdagi profesional barkamollikning asosidir. Mamlakatimizda umumdavlat ishi bo'lgan ana shu tarbiya, ya'ni o'quvchi yoshlarni ijtimoiy ishlab chiqarishning turli sohalaridagi mehnat faoliyatiga tayyorlash asosan maktabning o'rta va yuqori sinflarida amalga oshiriladi. Lekin bu ishning muvaffaqiyatli bajarishda boshlang'ich sinflarda va oilada turli darajada tayyorlanishga bog'liq.. Bolalarga mamlakatimizda har qanday mehnat sharaflari ekanini, halol mehnat qilgan kishi yuksak, qadirlanishni, mehnatdan qochadigan ahloqsiz odamlarni hech kim hurmat qilmasligini, boshqalar hisobiga yashash umuman aqlli, zukko odamga to'g'ri kelmasligini maktabda, ota-onalarning suhbatlaridan va ularning kuzatishidan iloji boricha ertaroq bilib olishlari lozim. Mehnat tarbiyasining oilada ham muvaffaqiyatli tashkil etishga imkoniyatlar ko'p. Bolaning boshlang'ich mehnat faoliyatida ota-onalarning mehnatga bo'lgan munosabatlari, harakatlari namuna sifatida xizmat qiladi. Ammo bolalar artofidagi "Mehnat" ni ko'rib tursa ham, mehnatsevarlik fazilati tarkib topaveradi. Bunga ota-onalar o'ylab, ehtiyotkorlik bilan ish ko'rishlari lozim. Bolalarni mustaqillikka o'rganishda ularga kiyinish usullarini tushuntirib, ko'rsatib berish lozim. Ularning kiyim va sochiqlari uchun maxsus veshilka qoqib qo'yish ham juda muhim hisoblanadi. Bola eshikdan kirib kelgan ustki kiyimlarini tartibsiz xolda yechib tashlamasdan, aksincha ota-onalar mahsus tayyorlangan veshilkaga ilishga odatlanib boradi. Oilada bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan xolda, maktab, mahalla bilan hamkorlikda ularning yoshlariga mos topshiriqlar, berib borish, kundalik vazifalarni taqsimlab mehnatsevarlikni tarbiyalash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bolani bog'cha yoshidan boshlab, o'z-o'ziga xizmat qildirish (kiyinish, yechinish, o'yinchoqlarni yig'ishtirib qo'yish) o'rgatib boriladi. Bolalar ulg'ayganlari sari ularning "Mehnat qilish" vazifalar doirasi kengayib boradi. Masalan kir yuvish, chorva hayvonlariga qarash va boshqa ishlar

topshiriladi. Bolalar yoshligidan ota-onalarning yaqin yordamchilari ekanligini his qiladilar. Maktab, mahalla hamkorlikda o'tkazilgan mehnatga bog'liq tadbirlarga bola o'sha tadbirni qanday maqsatda o'tkazilayotganini tushunib qatnashsa, mehnat qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ota-onalarning mehnatga bo'lgan munosabati bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Mahalla, maktab, oila bola tarbiyalashga hamkorlikda ma'sul hisoblanadi. Yuqorida aytilganidek ota-onalarning mehnatga bo'lgan munosabati bolaga kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi va o'zidan katta sinfdoshlari, mahalladagi faollarning mehnatsevarligi kichiklarga mehnat na'munasiga aylanadi.

Birinchidan maqsadga yo'naltirilgan "Tarbiya" yo'li bilan. Bu usulda bolalarda mehnatga mehr uyg'otib, ularning mehnat qilishlari uchun ko'nikma xosil qilishga yordam beradilar. Oila, maktab, mahalla hamkorlikda bolalarning ahloqiy va mehnat tarbiyasiga ongli munosabatda bo'lishi-shakllangan an'analar, qiziqish va ehtiyoj kattalarning o'zaro munosabatlari tarbiyasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. ota-onalar, maktab bolaning qiziqishi va maylini o'z vaqtida payqab, ulardan istedodni rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishlari lozim. Bu esa bolalarda kattalar mehnat yutuqlaridan fahirlanish hissini tarbiyalab, ularga ergashishga undaydi. Oilada, maktabda, mahallada bolalarga mehnat tarbiyasini singdirish. Agar bola biror topshiriqni bajarishga qiynalsa unga o'z vaqtida yordam berish kerak. Oilada olib borilgan yaxshi mehnat tarbiyasi bolalarning muvoffakiyatli o'qishga yaxshi zamin bo'lib xizmat kiladi. Ota-onalar shuni unutmasliklari kerak-ki, maktabda xam bolalar bilan mehnat tarbiyasi olib boriladi. Mehnat va ijtimoiy foydali mehnat darslari ham o'tiladi. Mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmagan bolalar bu darslarda bir qancha qiyinchiliklarga duch keladi. Oilada olib borilgan yaxshi mehnat tarbiyasi bolalarning muvaffaqiyatli, chidamli bo'lib o'sishlariga zamin bo'ladi. O'g'il qizlarni barcha mehnat turlariga tayyorlashda maktab, oila, mahalla hamkorligida bolalarni yangi hayotga tayyorlash faqat ijobiy natija beradi. Vaqtning qadriga yetish, daqiqalarni e'zozlash, uning barcha imkoniyatlarida oqilona foydalanish xozirgi kunning muhim shioriga aylangan bir paytda ota-onalarning kattalarni ibrati bolalar uchun ibrat bo'lib hizmat qilishi kerak. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uzluksiz ta'limga alohida e'tibor berilgan.

Uzluksiz ta'limning boshlang'ich nuqtasi oila hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonunning beshinchi bob o'ttizinchi moddasida Otaonalar yoki qonuniy vakillarning vazifalari quyidagicha ko'rsatib o'tilgan. Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolalarning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart, hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, maxsus, kasb-xunar ta'limini olishlari uchun javobgardir. Ana shulardan kelib chiqib, har bir ota-onalar, maktab, mahalla farzandlar oldidagi fuqarolik burchlarini his

etishlari lozim. Jamiyatimiz uchun yuqori malakali raqobatga qodir mutaxassisliklari tayyorlash uchun maktab, ota-onalar va mahalla hamkorlikda olib boriladigan kasbga yo'naltirish ishlarini takomillashtirish, yangi shakl va usullarni izlab topish va bunga keng jamoatchilikni ham jalb etish kerak. Oila maktab, mahalla tarbiyasiga loqayd bo'lmasligi lozim. O'quvchi maktabda ta'lim tarbiya olish bilan birgalikda shaxs sifatida shakillana boradi. O'zining jamiyatdagi o'rnini sinfdoshlari, qolaversa murabbiy mahalladagi ilg'or hunarmandlarga murabbiy o'qituvchilari bilan taqqoslay boshlaydi. O'zidagi yaxshi jihozlarni namoyon etishga intiladi va o'zgalar ichida ajralib turishga harakat qiladi. Xuddi shu paytdan boshlab, umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar, sinf rahbarlari, mehnat ta'limi o'qituvchilari kasb-hunarga yo'llash sohasidagi dastlabki ma'lumotlarni bera boshlashlari lozim. O'quvchilarning o'zi uchun munosib kasblar tanlashida ota-onaning roli alohida o'rin tutadi.

Ota-onalar, mahalla maktab jamoasi bilan o'z farzandi xususida vaqtivaqti bilan uchrashib, maslahatlashib, uning layoqati, kasblarga bo'lgan qiziqishlarini va individual xususiyatni e'tiborga olib, kasb tanlash ishlarini tashkil etish lozim. Sinf rahbari, maktab ruhshunosi kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutahassis va maktab shifokori bilan hamkorlikda ish olib borib, o'quvchining psixologik-pedagogik xaritasidan yozilgan tashxis natijalariga asoslanib, kasbiy maslahat berish lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda hamkorlikning psixologik jihatlari muhim ahamiyatga ega. Oila, maktab va psixologning birgalikdagi faoliyati orqali o'quvchilarning qobiliyatiga mos kasb tanlashiga yordam berish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Berdiyeva M.M. Formation of intellectual culture of a preschooler. <https://scientificconference.com/images/PDF/2019/55/International-scientificreview-LIV-ISBN.pdf>
2. Usmanova Saodat Erkinovna. (2021). Formation of spiritual and moral qualities of preschoolers on the basis of public education. Middle European Scientific Bulletin, 11. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.11.421>